



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

QIZILQUM SAHROSI QA'RIDA TARIX TILSIMLARI

Oydin XOTAMOVA*

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tilining joy nomlari (toponimlar) terminologiyasi tarixiga doir qaydlar keltirilgan, ya'ni Zarafshon hududida joylashgan obyektlarga qo'yilgan nomlar o'zbek adabiy tili davriga oid risolalarda uchraydigan joy nomlari terminlari tahlil qilingan. Faol qo'llanuvchi ba'zi terminlar izohiga aniqlik kiritilgan, ularning o'xshash va farqli jihatlari taqqoslangan. Shuningdek, joy nomlari terminlarining tartibga solish masalasi yuzasidan ayrim tavsiyalar berilgan. Barcha sohalarda yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlar o'zbek tili taraqqiyotiga, ayniqsa, uning terminologiyasi va lug'at tizimi rivojiga sezilarli ta'sirini ko'rsatmoqda. To'g'ri, shu paytgacha ham o'zbek tilshunoslari o'zbek tili terminologiyasi va leksikografiyasining turli masalalari ustida salmoqli ishlarni amalga oshirdilar. Biroq jamiyat taraqqiyoti tufayli yangidan paydo bo'layotgan yoki shu paytgacha kam e'tibor berilgan joy nomlari rivoji uchun shart-sharoitlar yaratilmoqdaki, bu jarayon o'zbek tili milliy terminologiyasida tadqiq qilinishi zarur bo'lgan muammolarni yuzaga keltirmoqda. O'z navbatida, yangi terminologik qatlamlarning yuzaga kelishi, ularni ma'lum bir qolipga solish, unifikatsiya qilish, standartlashtirish, ularning nomenklaturasini tartibga solish, joy nomlari izohli lug'atini tuzish singari masalalar ustida keng qamrovli tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. O'zbek tilshunosligi oldida turgan ana shunday dolzarb masalalardan biri tarixiy joy nomlari milliy terminologiyasini keng va atroflicha tadqiq etish hisoblanadi.

Kalit so'zlar: toponim, nom, termin, so'z, obyekt, geografik obyekt, lug'at, til, leksika, tarix.

Historical Terms in the Ancient Places of the Kyzilkum Desert

Abstract

This article presents notes on the history of the terminology of place names (toponyms) of the Uzbek language, that is, the names given to objects located in the Zarafshan region are analyzed, the terms of place names found in treatises relating to the period of the Uzbek literary language are analyzed. The explanations of some actively used terms are clarified, their similarities and differences are compared. Also, some recommendations are given on the issue of regulating the terms of place names. Positive changes taking place in all areas have a significant impact on the development of the Uzbek language, especially on the development of its

* Zarafshon shahar hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi.

terminology and vocabulary system. True, until now, Uzbek linguists have carried out significant work on various issues of the terminology and lexicography of the Uzbek language. However, due to the development of society, conditions are being created for the development of newly emerging or previously neglected place names, which creates problems that need to be studied in the national terminology of the Uzbek language. In turn, the emergence of new terminological layers requires extensive research on such issues as their consolidation, unification, standardization, regulation of their nomenclature, and compilation of an explanatory dictionary of place names. One of such urgent issues facing Uzbek linguistics is a wide and comprehensive study of the national terminology of historical place names.

Keywords: toponym, name, term, word, object, geographical object, dictionary, language, lexicon, history.

Tarixiy soʻzning qudrati shundaki, u orqali oʻtmish bilan yuzlashish mumkin. Ushbu oʻrinda Zarafshon shahri tarkibidagi Muruntov geografik obyekti toponimini keltirib oʻtish oʻrinli. Qizilqumning markaziy qismida Boʻkantov, Tomditov, undan janubda Muruntov kabi pastak togʻlar joylashgan.

Qizilqumning qalbi — Muruntovda. Zarafshon shahrining barpo etilishiga qimmatbaho maʼdanlarga boy boʻlgan, qadimdan olamni oʻziga mahliyo aylagan Muruntov sabab boʻlgan. “Oʻzbekistonning oltin sandigʻi” risolasida keltirilgan maʼlumotlarga koʻra, 1958-yilda Muruntov atrofidagi juda katta zaxiraga ega oltin koni haqida Oʻzbekiston Hukumatiga maʼlum qilinganidan soʻng mutaxassislar tomonidan oʻrganishlar olib borilgan. (Bazarov, Muqumov, 2015) 1964-yil 25-mayda Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatining “Muruntov koni bazasida oltin ishlab chiqaruvchi korxonani qurish haqida”gi qaroriga asosan Sugʻrali darasida, yaʼni oltin ajratib olinadigan zavoddan 30 km uzoqlikda shahar barpo etilgan. Joriy yil Zarafshon shahrining tashkil topganiga 60 yil toʻldi.

Qadimdan qishloq va shaharlar suv boʻylarida, yashash uchun qulay joylarda tabiiy ravishda vujudga kelgan. Suv aholi punktlarining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻlsa-da Zarafshon shahri qaqrab yotgan sahro bagʻrida buyuk maqsadlarni koʻzlab inson zakosi va zahmati bilan barpo etilgan.

“Muruntov” nomiga izoh beriladigan boʻlsa, aslida Muruntov — yassi togʻ nomi. Dastlab yassi togʻ, ekspeditsiya, oltin koni, qoʻrgʻon, keyinchalik shaharcha, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organi va mahalla (har bir obyekt toʻgʻrisida batafsil toʻxtalib oʻtish mumkin) ana shu nom bilan atalgan. Toponimning “Muruntau”, “Muruntogʻ”, “Muruntov” shakllaridan foydalanib kelingan. Kadastr agentligi huzuridagi Toponimika xizmati tomonidan normallashtirilgan nom sifatida “Muruntov” shakli tasdiqlangan.

Aholi yassi tog'ning ko'rinishini odam burniga o'xshatib, "murun tov" – "burunga o'xshash tog'" deb atagan, ya'ni geografik obyektning aniq belgilarini ilg'agan. O'xshatish asosida metafora (metafora, yunoncha — "siljish, o'xshatish") usulida toponim vujudga kelgan. Toponim turkiy (qozoq) tildagi "murun" ("burun") va "tov" ("tog'") so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Toponimning birinchi asosidagi "murun" so'zida turkiy tillarda m-b undosh fonemalar mosligi, ya'ni m undoshining b ga o'tish yoki buning aksi uchraydi: men – ben, murun – burun, muni – buni, munday – bunday kabi. Xuddi shu hodisa murun so'zida ham kuzatiladi: murun > burun. (O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati, 295-b.) Ushbu shakl turkiy tillar orasida qozoq va yoqut tillarida qo'llanadi.

Toponim S.Qorayevning Toponimika qo'llanmasida "murun" so'zining "tumshuq", "muyulish" ma'nolari ham keltirilgan.

Bu toponimning ikkinchi asosi bo'lgan "tov" so'zining teg shakli eski yozma variantlarda uchraydi.

Masalan, teg shaklidagi bu so'z VII asrga oid Kul-Tegin yodgorligi, X asrga oid "Oltin Yoruq", XI asrga oid Mahmud Koshg'ariyning "Devonul lug'at-at-turk" asarida, 1069-yilda yozilgan Yusuf xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida qo'llangan.

Hozirgi turkiy tillarda bu so'z tag, dag, tau, tooo, tu, tya shakllarida uchraydi. Bu shakllarning eng qadimgisi tegdir. Hozirgi qozoq tilida bu so'zning tau shakli ishlatiladi. Bu holat toponimlar tilning qadimiyligini saqlab qolishining yana bir dalilidir. (Abduraxmanov, Toponimika va etimologiya, 158-b.)

Muruntov – Navoiy viloyati Zarafshon shahridagi mahallaning nomi.

Geografik obyekt mahalla sifatida 1994-yil tashkil topgan bo'lib, mahalla fuqarolar yig'inining rasmiy nomi hududda istiqomat qiluvchi fuqarolarning fikrini inobatga olgan holda tanlangan.

Mahallada 387 ta turar joy, 938 ta xonadon, 1012 ta oila mavjud mavjud. Hudud ko'chalari toifalangan va nomlangan. 2 ta umumta'lim maktabi, 1 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, Muruntov uy-joy kommunal bo'limi, oilaviy shifokorlik punkti, 22 dan ortiq savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari, 3 ta umumiy ovqatlashish shoxobchasi, 2 ta sartareshxona, 1 ta go'zallik saloni, 2 ta kutubxona, 1 ta dorixona aholiga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Hudud toza ichimlik suvi bilan to'liq ta'minlangan.

Mahallada ko'p millatli aholi istiqomat qiladi. Aholisi asosan o'zbeklar, ular bilan bir qatorda rus, tatar, ozarbayjon, arab, tojik, koreys, qozoq va qoraqalpoqlar ham o'zaro totuvlikda yashaydilar.

Xalqimizni rizqlantirib kelayotgan Olloh nazari tushgan ona zaminimizning ushbu parchasidan baraka arimasin, Muruntov nomi asrlar osha avlodlarga bezavol yetib borsin.

Foydalanilgan adabiyotlar

Bazarov M., Muqumov M (2015). *O'zbekistonning oltin sandig'i Samarqand*, "Zarafshon" nashriyoti.

O'zbek tilining izohli lug'ati VI jildli (2023). G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent.

O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati (2022).

Abduraxmanov A. (2010) *Toponimika va etimologiya*. Pavlodar.

Arapbayev E. *Қызылқұмдағы топонимдер мен олардың этимологиясы*.

geonames.uz — Geografik obyektlarning nomlari davlat reyestri // Geografik obyektlar nomlari axborot veb-portali.